



# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!2024-yil 16-may, payshanba,  
58 (23.935)-son

**KUN  
HIKMATI**

So'z  
aytmoq -  
mahorat,  
eshitmoq -  
farosat



## Tomorqachilik bo'yicha Xitoy tajribasi qo'llaniladi

Yurtimizda mehmon bo'lib turgan Xitoy Xalq Respublikasi Markaziy qo'mitasi siyosiy byurosi doimiy qo'mitasi a'zosi, Davlat kengashi Bosh vazirining o'rinnbosari Lyu Gochjun boshchiligidagi delegatsiya O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinnbosari Jamshid Xo'jayev hamrohligida 14-may kuni Samarqandga tashrif buyurdi.



Mehmonlarni Samarqand temiryo'l vokzalida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov kutib oldi.

O'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga bag'ishlangan uchrashuvda tomonlar o'zlarini qiziqritayotgan yo'naliishlar bo'yicha fikr almashdi.

Viloyat hokimi O'zbekiston – Xitoy aloqalariga qadimda ajoddularimiz tomonidan asos solinganligini ta'kidlab, uni yanada rivojlantirish har ikkala tomon uchun birdek manfaatlari ekanligini alohida qayd etdi. Shuningdek, ayni paytda Samarqand va Xitoy aloqalarini yangi bosqichga ko'tarilganiga e'tibor qaratib, hamkorlikning istiqbollarini belgilovchi o'nta yo'naliishga to'xtaldi.

Jumladan, suv resurslaridan samarali foydalanish borasida Xitoy tajribasi mamlakatimiz, xususan, Samarqand uchun bugun juda muhimligi ta'kidlanadi. Bu borada Shensi provinsiyasida amalga oshirilgan va keyinchalik butun Xitoya tatbiq etilgan sunvi tejash bo'yicha tajribani Samarqandda amaliyatga tatbiq etish bo'yicha mutaxassislar hamda texnologiyalarni jaib qilish taklif etildi. Bu tajriba Payariq tumani misolida amalga oshirilib, keyinchalik butun viloyatda joriy etilishi ko'zda tutilgan.

Uchrashuvda Xitoy qishloq xo'jaligida erishilgan natijalardan kelib chiqib, g'alla va paxtachilik, sabzavot mahsulotlari yetishtirish, pillichilik va charm-poyabzal sanoati, tomorqa xo'jaliklari bo'yicha ular tajribasini o'rganish va viloyat tumanlarida yo'iga qo'yish taklif etildi. Bunda urug'chilidan boshlab serhosil, kam suv talab qiladigan navlari ekish, eksportbop mahsulotlari yetishtirish, ularni saqlash va qayta ishlashgacha bo'lgan jarayonlarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanan zarurligi qayd etildi.

– Tomorqachilik borasida Xitoy tajribasi alohida ahamiyatida ega, – dedi E.Turdimov. – Chunki jamiatda kambag'allikni bartaraf etishda ushbu yo'naliish juda muhim. Buni Xitoy tajribasi ko'rsatmoqda. Xitoy yetakchisi Si Sziinpin janoblarining tomorqachilik bo'yicha kitobida bu borada juda muhim ma'lumotlar qayd etilgan. Viloyatimiz delegatsiyasi Xitoya safari davomida Qashqar tajribasini o'rganib keldi. Issiqqlik talab etilmaydigan is-siqxonalarda millionlab dollar daromad qilinayotganligi bizni hayratlantirdi. Shu bois Xitoydan viloyatimizning 11

tumaniga o'n nafardan, jami 110 nafar tajribali tomorqachilarini hamda ularga rahbarlik qiladigan 3 nafar tajribali mutaxassisni jaib qilish orqali tomorqachilikni rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni amalga oshirish loyihasini amalga oshirish maqsadimiz bor. Ipakchilikda Xitoya yiliga sakkiz martalab hosil olinishi haqida eshityapmiz. Shuningdek, kanakunjutdan pilla yetishtirish yo'iga qo'yilgan. Bu ham biz uchun yangilik va uni joriy etishdan manfaat dormiz.

Uchrashuvda Samarqandda teri yetishtirish borasida ulkan salohiyat mavjudligi bois xitoylik tadbirkorlar bilan hamkorlikda xomashyoni qayta ishslash va ishlab chiqarish klasterini tashkil qilish loyihasini amalga oshirish taklifi ilgari surildi. Nurobod tumani ushbu yo'naliish uchun ulkan imkoniyat borligi qayd etildi.

Samarqand viloyatida 260 ming hektar maydonдан qishloq xo'jaligida foydalaniлади. Qishloq xo'jalik texnikalariga talab katta. Bugungi kunda foydalaniлатган texnikalar Belarus, Rossiya, Turkiya, Germaniya davlatlari dan keltirilgan. Ammo bu texnikalarning narxi balandligi soha vakillarini qiynatog'an masalardan biridir. Shu bois Narpay tumanida qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish markazini tashkil etish loyihasini amalga oshirishga Xitoyaning ilg'or kompaniyalari taklif etildi.

Davlatimiz rahbari Xitoya tashrifi davomida xitoylik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda yugori texnologik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish borasida sanoat parkini tashkil etish taklifini bildirgan edi. Shu asosda Samarqand va Kattaqo'rg'on tumanlari infratuzilma borasida qulay bo'lgan 320 hektar yer maydoni ajratilgan. Ushba loyihalarni amalga oshirishga ham ilg'or soha vakillari jaib qilinishi ta'kidlandi.

Janob Lyu Gochjun o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash borasidagi takliflarni qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi. Jumladan, delegatsiya tarkibida qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha mas'ullar borligini bildirib, ular har bir yo'naliish bo'yicha aniq takliflarni o'rnab chiqishi va kelgusida amaliy jarayonlarda bevosita qatnashishi qayd etdi.

Tashrif davomida mehmonlar viloyatdagi bir qator korxonalar faoliyatini bilan tanishdi hamda Samarqandda diqqatga sazovor joylarni tomosha qildi.

Viloyatimizdag'i ishlab chiqarish korxonalarini yana bittaga ko'paydi. "Urgut" erkin iqtisodiy zonasini uchun Jomboy tumanida ajratilgan hududda "Coca-Cola" ichimligi ishlab chiqaruvchi CCI zavodi buniyod etildi.

Korxonaning ochilish marosimida viloyat hokimi E.Turdimov, Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri L.Qudratov, "Coca-Cola" kompaniyasi boshqaruvi raisi, bosh ijrochi direktori Jeyms Kuinsi, Turkiyaning "Anadolu Group" kompaniyasi boshqaruvi raisi Tunjay Ozilxon va boshqalar so'zga chiqib, "Coca-Cola" kompaniyasi 1994-yildan buyon O'zbekistonda muvaffaqiyatlari faoliyat olib borayotganini ta'kidladi.

– Biz dastlab Toshkentda, so'ngra Urganch va Namanganda ishlab chiqarish korxonalarimizni ochish uchun O'zbekistonga sarmoya kiritingandik, – dedi "Coca-Cola" kompaniyasi boshqaruvi raisi, bosh ijrochi direktori Jeyms Kuinsi. – Bu orqali mamlakat iqtisodiyoti rivojiga va mamlakatda yangi ish o'rinnari yaratishga hissa qo'shdik, deb o'layman. 30 yillik hamkorligimiz bugun barqaron rivojanmoqda va biz bundan xursandmiz. Dunyoga mashhur Samarqandda yana bir korxonamizni tashkil etishimiz O'zbekiston bilan hamkorligimiz samarali davom etayotgani va mamlakat iqtisodiyoti rivojiga ishchonchimiz natijasidir.

Qisqa vaqt – o'n oyda 18,5 hektar maydonda qurilgan zavodning umumiy loyiha qiymati 112 million AQSh dollarini tashkil etadi. Ushbu mablag'ning 100 million dollarri xorijiy investitsiya hisoblanadi. Yiliga 280 million litr ichimlik ishlab chiqarish quvvatiga ega korxonada 200 ta ish o'rni yaratildi. Mahsulot ichki bozorga chiqarilishi hamda MDH mamlakatlariga eksport qilinishi ko'zda tutilgan.

Nufuzli mehmonlar ramziy tugmani bosib, korxonada ishlab chiqarish jar-



## Mashhur brend ichimliklari Jomboyda ishlab chiqariladi

yonlariga start berdilar.

– Bugungi kunda dunyoning 20 davlatida kompaniyamiz sarmoyasi asosida tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritmoqda va ularda 100 ming nafr ishchi mehnat qiladi, – deydi "Anadolu Group" kompaniyasi bosh direktori Burak Bashirir. – Jumladan, O'zbekistonda 2018-yildan buyon ish olib boryapmiz va shu vaqtgacha mamlakat iqtisodiyotiga 500 million AQSh dollaridan ortiq investitsiya kiritishga erishdik. Bu bizning O'zbekiston hukumati va biznes muhitiga bo'lgan ishchonchimiz ifodasidir. Kelgusida ham investitsiyaviy hamkorligimiz rivojanib borishiga ishonomiz va bu borada

bir qator loyihalari ko'zda tutilgan. Xususan, Namangandagi mavjud zavod o'rniда yangi, zamonaviy infratuzilmaiga ega bo'igan korxona yartish rejalashtirilgan. Shuningdek, O'zbekistondagi savdo shoxobchalarida xizmat ko'satish sifatini oshirish, yo'lxarajatlarini kamaytirish va optimallashtirish maqsadida yangi texnologiyalar joriy etish, iqtidorli xodimlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan sarmoyalari kiritishda davom etamiz.

Tadbir qatnashchilarini yangi korxonadagi ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishdi.

G'.HASANOV,  
A.ISROILOV (surat)

## TAYINLOV



**Boboyev Sarvar Boltayevich** – Samarqand viloyati yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Tayinlovga qadar S.Boboyev viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari vazifasida faoliyat yuritgan.

## MUKOFOT MUBORAK!

Toshkentda "Oltin qalam" XVIII Milliy mukofoti uchun xalqaro tanloving g'olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Tanloving internet nashrlari yo'naliishi bo'yicha g'oliblar safida Samarqandda ijod qilayotgan "Kun.uz" veb-sayti muharriri va maxsus muxbirini

**Shuhrat  
Shokirjonov** (2-o'rni) ham bor.

Hamkasbirimizni ushbu nufuzli mu-kofot bilan tabriklaymiz.

## Samarqand deklaratsiyasi

Osiyo xotin – qizlar forumining yakuniy yechimi bo'ldi

Xabar berganimizdek, Samarqand shahrida "Xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga mintaqaviy yondashuv" mavzusida Osiyo xotin-qizlari forumi bo'lib o'tdi. Forumning ikkinchi kuni ham samarali muloqotlar, babs-munozaralarga boy bo'ldi.



mehnat uchun erkaklar bir dollar olayotgan paytda ayollarning bu mehnat uchun daromadi 51 sentni tashkil etmoqda.

2022-yilda dunyodagi mojarolardan azyiat chekayotgan ayollar soni 614 million kishiga yetdi. Bu 2017-yilga nisbatan 50 foiziga



ko'pdir. Keksa ayollar bo'yicha ma'lumot yuritadigan 116 mamlakatning atigi 56 foizida ayollar pensiya olish imkoniga ega. Bu tendtsiyani o'zgartirish, dasturlar ishlashtini yo'iga qo'yishimiz kerak.

Forum davomida oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash yuzasidan Malayziya, Filippin, Hindiston, Pokiston, Quvayt hamda Turkiya Respublikalari bilan anglashuv memorandumlari imzolandi. Shuningdek, xalqaro anjuman yakunlari bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi.

# Kengashlar tajriba almashdi



## QADAMJOLAR ZIYORATIDAN BOSHLANDI

Seminar ishtirokchilari dastlab Imom Buxoriy majmuasi hamda Islom Karimov qabrimi ziyorat qildi.

- Yuqori palata yoki qonun ijodkorlarining joylardagi vakillik organlariga huquqiy yordamidan ko'ra, bunday muloqot samarali bo'lishi shubhasiz, - deydi Oly Majlis Senati vakili Abdurashid Altiyev. - Misol uchun, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashida joriy yilning birlinchi choragiда 6 marotoba hokim qarorlarini tasdiqlash masalasi ko'rib chiqilgan.

Bu borada Navoiy viloyatida statistika yoki jayron biroz boshqaacha. Demak, har ikki tomonning o'z amaliyoti, tajribasi bor.

Bundan tashqari, deputatlarda mahalliy budjetlarni, shuningdek, tumanlar va shaharlar budjetlарини tegishinchaligi viloyat, tuman va shaharlar hokimlarining taqdimmomasiga binoan ko'rib chiqish hamda qabul qilish, mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida belgilash vakolatlari bor.

Ikki viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot farq qilishini hisobga olsak, vakolatlarni qo'llashda ham almashinadigan tajribalar borgilagini ko'rish mumkin.

## DEPUTAT SO'ROVCHIMAS, TALAB VA NAZORAT QILUVCHI

Navoiylik deputatlarni xalq deputatlari viloyat Kengashi faoliyati bilan Kengash kotibiyaning mudiri S.Usmomon tanishitirdi.

- Kengash tarkib 37 nafr erkak, 22 nafr ayol deputatdan iborat, - dedi S.Usmomon. - Deputatlik korpusi 21 nafr ta'lin sohasi vakili, 6 nafr qishloq xo'jaligi xodimi, 6 nafr muhandis, 6 nafr tibbiyot xodimi, 3 nafr moliya-iqtisod sohasi vakillari va 6 nafr boshqa soha xodimlaridan iborat.

Kengashda mavjud 5 ta partiya ham deputatlik guruhlariga ega. Xususan, O'zLiDeP partiyasidan 18 nafr, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 14 nafr, "Adolat" sotsial-demokratik

Oly Majlis Senati Devoni hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazining 2023-yil 21-dekabrdagi topshirig'da xalq deputatlari viloyat kengashlari bir-birlarining ishlari o'rganishi, o'zaro tajriba almashishi belgilangan.

Shu asosda Navoiy viloyati deputatlari Samarqandga kelib, hamkasblari faoliyati bilan tanishdi, o'zaro tajriba almashdi.



partiyasidan 12 nafr, Xalq demokratik partiyasidan 8 nafr, O'zbekiston Ekologik partiyasidan 7 nafr deputat saylangan.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari tomonidan bugungi kunga qadar hokimliklar, korxona va tashkilotlarga 1200 dan ortiq deputatlilik so'rovrlari yuborilgan. So'rovrlar Kengash kotibiyaning orqali chiqarilib, ular ijrosi nazoratga olinmoqda.

Kengash sessiyalarida 263 ta hisobot eshitilgan, 71 marta turli darajadagi rahbarlar axborot bergan.

Sessiyalarda 55 ta masala muhokama qilingan.

2020-yil 141 ta, 2021-yil 221 ta, 2022-yil 194 ta, 2023-yil 104 ta, joriy yilning o'tgan davrida 43 ta qaror qabul qilingan.

## MUHIM JIHAT

Deputatlar tomonidan aholi muammolarini yechish vaqtida moddiy tarafdan muammolariga duch kelishi bor gap. Kengash raisi tomonidan ushu ishlarni tizimli davom ettirish rejalashtirilgan.

Jumladan, xalq deputatlari viloyat Kengashi raisi E.Turdimov raisligida 2021-yilda 23-sessiyada "Daramadi kam bo'lgan lollar ning sharoitini yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni to'g'risida"gi masala muhokama qilingan.

Ijtimoiy himoyaga muhuj, shu bilan birga tadbirkorlik rivojlantirish maqsadida viloyat Kengashining har bir deputatiga 50 million so'mdan mablag' ajratish taklif etilgan.

Deputatlar o'z okrugidagi kamida 10 ta kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhuj oila ro'yxatini shakllantirib va ularning tadbirkorlik bilan shug'ullanishini nazoratga olib, ajratilgan mablag' hisobidan yordam berdi.

Shuningdek, 28-sessiya qarorida "Xalq depu-

tatlari viloyat Kengashi deputatlari shahar va tumanlari Kengashi deputatlari bilan birlgilikda xalqimiz davolash, sog'lig'i tiklash uchun ordedlar berish yoki og'ir tibbyi jarroqlik amaliyotini amalga oshirish bo'yicha ijtimoiy himoyaga muhuj 5 nafardan fuqaro ro'yxatini viloyat Kengashi kotibiyaniga taqdim qilish to'g'risida" topshiriq berilgan.

Deputatlar o'z okrugidagi yordamga muhuj, sog'lig'i muammosi bor fuqarolar ro'yxatini shakllantirib Kengash kotibiyaniga taqdim etishdi. Bemorlar ro'yxati umumlashtirilib, 37-sessiya qarori bilan sog'liqni saqlash boshqarmasiga 2 milliard 469 ming 900 so'm mablag' o'tkazib berilgan.

Ushbu tajribai davom ettirilib, 2022-yilda ijtimoiy ahvoli og'ir aholining sog'ligini tiklash, ularni sog'lolmashtirish, deputatlilik nazorat faoliyatini kuchaytirish maqsadida har bir deputatga 100 million so'mdan mablag' ajratildi. Deputatlar o'z okrugidagi sog'ligida muammosi bo'lgan, yordamga muhuj bemorlarni davolatish uchun xulosha berishgan va 500 nafardan ziyod be-morning sog'lig'i tiklangan.

## PARTIYA GURUHLARINING O'RNI

O'tgan davr mobaynida Kengash sessiyalariga O'zLiDeP deputatlilik guruh 10 ta, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi deputatlilik guruh 5 ta, Xalq demokratik partiyasi deputatlilik guruh 5 ta, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi deputatlilik guruh 4 ta va O'zbekiston Ekologik partiyasi deputatlilik guruh 3 ta masala kiritgan.

Navoiylik deputatlar partiya deputatlilik guruhlari faoliyati bilan yaqindan tanishib, bu haqda kengroq ma'lumotlarga ega bo'lishi. Shuningdek, Samarqand tumanidagi xalq noiblari olib borayotgan ishlarni ham o'rungi.

Tadbir ishtirokchilari Samarqand shahridagi "Samarqand metalluriya zavodi" va "Stekloplastik" korxonasini borib ko'rdi. Tarixiy-madaniy yodgorliklarga sayohat uyuştirildi.

Joriy yil xalq noiblari saylanishi kutilyapti. Bu jarayonda nomzodlar faqat siyosiy partiyalardan ko'rsatilishi ni hisobga olib, bu tuzil-malarining viloyat Kengashi raislariga bir necha savollar bilan murojaat qildik.

Ilk suhbатdoshimiz

O'zbekiston Ekologik partiya viloyat kengashi raisi Baxtiyor ABDULLAYEV.

- Viloyatimizda 500 naftaga yaqin deputat faoliyat olib boradi. Lekin aholining aksariyati deputatlarni tanimaydi. Bunga sabab nima deb o'ylaysiz?

- Saylovchilarning deputatlarni tanimasligining sabablari turlicha. Avvalo, aholining qaysidir qismining e'tiborsizligi yoki loqaydligi bo'lishi mumkin. Chunki odamlar orasida naflaqat deputat, balki o'zingin rahbari yoki hokimlarni tanimaydiganlar uchradi. Albatta, xalq bilan kam uchrashadijan deputatlarimiz ham bor.

Yana bir sabab, ko'pincha deputat uchrashuvga Borganda mahalladagi faollardan boshqalari kelmasi kuzatiladi. Qachonki boshiga bir ish tushsa yoki nimadir kerak bo'lsagina deputatlar axtarib qoladiganlar bor. Menimcha, aksariyat saylovchilar taniyidigan deputat albatta, naflaqat aholi bilan uchrashuvga chiqishi, balki matbuot orqali, televideoni, radio, gazeta va turli ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez ko'rinish turishi kerak.

- Vakillik organiga uning nomzodini qaysidir partiya ko'rsatgan bo'lishi qaramay, ayrim deputatlar hatto o'sha siyosiy tuzilma

## Siyosiy imtihonlarga qanday tayyorgarlik ko'rilyapti?



bilan ham yaqin hamkorlik qilmaydi. Shunday bo'lishiqa qaramasdan, bugungi kungacha biror deputat chaqirib olingan emas. Nima deb o'ylaysiz, vakillik organlariga mustaqillik berilayotgan bir paytda bu institutni ishlatalish ayni mudda bo'lmaydim?

- Siyosiy partiyalar bilan aloqani uzgan deputat? Bizda bunaqasi yo'q, lekin faolligi sust bo'lganlari uchraydi, ularga ham tushuncha berilib, tarbiyaviy ahamiyatga ega choralar ko'rildi, hisobotlari tinglanadi.

- Umuman, joriy yilgi saylovlar o'tgan safargilardan tubdan farq qilishi tabii. Majaritar saylov, hokimlari endi mahalliy Kengashlarga rais bo'lmasisi kabi ko'plab omillar bunga sabab bo'lishi shubhasiz. Bunday sharoitida partiyaning siz rahbarlik qilayotgan viloyat Kengashi siyosiy imtihonlarga qaydarada tayyorgarlik ko'rmoqda?

- Albatta, saylov tizimidagi o'zgartirish va yangi tartiblar har bir partiyaga o'ziga xos mas'uliyat yulaydi. Avvalo, nomzodlarning munosiblari tanlash, partiyaning imidjini shakllantirish va takomillashtirish ham bor.

Bu borada rejalish, tadbirlar olib borilmoqda. Hozirgi saylovchilarimiz avvalgilaridan farqli o'laroq juda faol va o'zlarining qat'iy fikrlari dunyoqarashi shakllangan.

- Saylov haqida gap ketar-

kan, tabiiyki, jarayonlar oldidan partiyalar beixtiyor faollashadi. Ayting-chi, ana shu jo'shqinlikni saqlab qolish mumkinmi?

- Saylov oldidan partiyalar faollashishi tabii. Demak, tabiiy ravishda domiy saylov, ya'ni musobaqa, babs davomli bo'lishi kerak. Bunda ma'lum muddat, start, davomiylik va yakuniy xulosalar beriladi.

- Yaqinda o'tkazilgan tadbirda partiya yetakchilaridan biri "Biz saylov vaqtida raqobatlashganimiz bilan maqsadimiz bir, ya'ni hammamiz viloyatni rivojlantirish, aholi turmushi farovon bo'lishi istaymiz", dedi. Bu partiya yetakchilari ham o'zaro raqobatga tayyor emasligini ko'rsatmaydim?

- Bu savolni sunvi loyalatish deb tushunish mumkin. Chunki o'sha tadbirda ko'ilgan masalaning mavzusi aniq edi. Tadbirda qatnashganingizda (masalaning mohiyatiga yetmasdan,

## Partiyalar hayoti

chala eshitgan holda emas) bu savolni bermagan bo'lar edingiz. Chunki masala kengash faoliyati va deputatlilik sifat tarkibi haqida edi, partiyalar va ularning raqobati haqida emasdi.

Partiyalar orasidagi raqobat saylovda ham, saylovdan keyin ham davom etadi. Raqobat yo'q joyda rivojlanish to'xtaydi. Lekin xalq deputatlari Kengash faoliyatida partiyalar raqobati emas, ko'rildigan masala yechimiga ko'proq e'tibor qaratiladi va bunda deputat faoliyatiga baho berilishi mumkin.

Shu sabab qaysi partiyadan deputatlilikka nomzod ko'rsatilsa ham uning faoliigi, xalqparvarligi va masala yechimida bilimi bor kishini saylash kerakligi aytildi. Ya'ni, bunda qaysi partiyadan ekanligi muhim emasdi.

- Partiyaning siz rahbarlik qilayotgan viloyat Kengashi, uning deputatlari faoliyatini 10 ballik tizimda nechaga baholaysiz?

- Bunday baholash tizimi borligini bilmadim, lekin hali imkoniyatimidan to'la foydalana olganimiz yo'q va bu boroda ko'p ishlashimiz kerakligini bilaman.

- Jamiyat hayotida o'z o'rni mustahkamlash uchun partiya viloyat Kengashining rejali qanday?

- O'zbekiston ekologik partiyasining dasturi, ustavi va saylovoldi dasturlarida biq qator rejalar, vazifalar keltirilgan. Biz shu asosda ish olib boramiz. Eng asosiy "Biz kelajak uchun javobgarmiz" shioriga munosib ishlarni amalga oshiramiz.

Yoqubjon MARQAYEV tayyorladi.

14-15-may kunlari MDHga a'zo davlatlarning kutubxonachilik sohasi mutaxassislari Samarqandda uchrashdi.

Ularni "Kutubxona hamdo'stligi: hamkorlik va innovatsiyalar" xalqaro kutubxonachilar forumi birlashtirdi.

# MUTOLAA xalqlarni birlashtiradi

Tadbirning ochilish marosimida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori Asadjon Xodjayev, viloyat hokimi o'rinosbas Rustam Qobilov qatnashib, forum ishtirokchilarini qutladi.



Forum "Samarqand - MDHning madaniy poytaxti - 2024" davlatlar dasturini amalga oshirish doirasida tashkil etildi. Unda Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlar milliy kutubxonalar, Moskva hamda Sankt-Peterburg davlat madaniyat instituti, bolalar va yoshlar kutubxonalar, Markaziy Osiyo chegara kutubxonalarining 30 ga yaqin rahbarlari va yetakchi mutaxassislar qatnashdi. Ular kutubxonalarni zamonaviy rivojlantirishning dolzarb masalalari, raqamli muhitda bosma va qo'lyozma meroslarning taqdimoti, mutolaani targ'ib qilish dasturlari, kutubxonalardagi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari masalalarini muhokama qildilar.



- O'zbekiston men uchun qadrli, bu yerda bir muddat yashaganman, kutubxonachilik sohasida mehnat qilgaman, - deydi Sankt-Peterburg madaniyat instituti axborot-kutubxonachilik fakulteti dekanasi Valentina Berejneva. - Samarqandda mehnem bo'lib turib, qalbim haya jonga to'ldi. Bu yerdagi kutubxonalar faoliyati a'lo darajada. Xususan, A.S.Pushkin nomidagi viloyat axborot-kutubxonasi markazida qirqqa yaqin tildagi kitoblar mayvidagi alohida e'tirofga loyiq.

Kutubxona - ma'rifat o'chq'i, mutolaasi esa xalqlarni birlashtiradi. Kitoblar orqali boshqa millat vakillarining tilini, urf-odatlarini, tarixini o'rganish mumkin. Bugungi tadbir turli davlatlarda faoliyat yuritayotgan soha mutaxassislarining tajriba almashishiga, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Tadbir davomida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi va Rossiya Davlat kutubxonasi, Xorazm viloyati Mahmud az-Zamaxshari nomidagi axborot-kutubxona markazi va Vladimir Mayakovskiy nomidagi jamoat kutubxonasi, Surxondaryo viloyati Termez nomidagi axborot-kutubxona markazi va Tojikiston fanlar akademiyasi markaziy ilmiy kutubxonasi o'tasida hamkorlik shartnomalari imzolandi.

To'iqin SIDDIQOV, Baxtiyor MUSTANOV (foto).

## "Eng yaxshi kitobxon – 2024"

ko'rik-tanloving viloyat bosqichi o'tkazildi

Viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasida mazkur kutubxona hamda uning shahar, tuman tarmoq kutubxonalarining ko'zi ojiz faol kitobxon yoshlari ishtirokida "Eng yaxshi kitobxon - 2024" respublika ko'rik-tanloving viloyat bosqichi o'tkazildi. Tanlovda 17 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan 14 nafar ko'zida nogironligi bor kitobxon yoshlar ishtirok etdi.

Ishtirokchilar 3 ta shart - tanishtiruv, o'qilgan asarlari asosida savol-javoblar hamda hakamlar tomonidan berilgan mavzu asosida insho yozish bo'yicha bellashdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, birinchi o'rinni 59- "Nurli maskan" maxsus ta'lim muassasining 10-sinf o'quchisi, ko'chma kutubxona kitobxon Nazokatxon Butunboyeva, ikkinchi o'rinni Samarqand tumanidan kelgan kitobxon Mahiliy Daminova, uchinchi o'rinni Bulung'ur tumani ishtirokchisi Mavlon Abdusattorov qo'iga kirdi. Ko'rik-tanlov ishtirokchilari va g'oliblar faxriy yorliq, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Birinchi o'rinni egallagan N. Butunboyeva tanloving respublika bosqichida viloyatimiz nomidan ishtirok etadi.

Mavluda AMONOVA,  
viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi bo'lim mudirasi.



## Mehnat xavfsizligi xarajat emas, investitsiya

Samarqand shahrida Fransiyaning "Acted" nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan "Yangi Mehnat kodeksidagi muhim normalar" mavzusida seminar-trening o'tkazildi.

Yurtimiz bo'ylab o'tkazilgan "Mehnatni muhofaza qilish haftaligi" tadbirlari doirasida o'tkazilgan treningu dommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda xususiy sektor vakillari ishtirok etdi. Unda yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi, sohaga oid qonunchilikdagi yangi tartib va normalar, ularni amaliyotda qo'llash shartlari yuzasidan tushuntirish berildi.

Seminar-trening fuqarolik jamiyatni tashkilotlari, biznes rahbarlari va jurnalistlarga mehnat bozordagi ijtimoiy masalalarni o'rganish uchun hamkorlik platformasini o'tashi ko'zda tutilgan. Jarayonda tomonlar

mehnat huquqi ta'minlanishidagi muammlar, ish beruvchi va xodimlar o'ttasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, jarayonni xolis yorishit masalalari bo'yicha fikr almashdi, ilg'or tajribalar ommalashtirildi.

— Afsuski, bugun ham ayrim ish beruvchilar xodimlarga xavfsiz mehnat sharoitini yaratish uchun ketadigan sarfni kerak-siz xarajat deb o'laydi, - deydi mehnat sohasi eksperti Nodira G'oibnazarova. - Amma ular xodimi ish vaqtida shikastlansa, undan ham yomoni, hayotdan ko'z yumsa, javobgarlikka tortilishini, katta xarajat-larga tushushini o'ylab ko'rmaydi. Agar mehnat qonunchilikini o'rganishsa, unga rivoj ish beruvchi uchun manfaatlil ekaniligi bilishardi. Bizning vazifasiz trening ishtirokchilari ko'magida ham ish beruvchi, ham ishchilarga mehnatdagi o'z huquq va majburiyatlarni yetkazish, qonun ijrosi ustidan kuchli jamoatchilik nazoratini shakkantirishdir.

### Tanlov savdolarida mingdan ortiq kamchilik bor

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huuqularini himoya qilish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i o'rribbosari Jahongir Ashurov:

- Joriy yilning o'tgan davrida viloyatda 2766 ta tanlov savdolari o'rganilib, 1101 tanlov savdolarida 1122 ta kamchilik aniqlandi. Shundan 44 holatda ishtirokchilar o'rtaida afillanganlik bo'yicha, 1071 holatda savdolar o'tkazishning qonun hujjalardan belgilangan tartibni buzish va 7 holatda buyurtmachi va ishtirokchi o'rtaida afillanganlik holatlari aniqlandi.

O'tgan yili va joriy yilning birinchi choragida boshqarmaga iste'molchilar tomonidan uy-joy komunal xizmat ko'rsatish, qurilish va transport, savdo va umumiy ovqatishan, aloqa va ijtimoiy xizmatlar, reklama va boshqa sohalarga oid 1796 ta murojaat tushgan. Murojaatlarining 1054 tasi qanoatlantirildi va ular foydasiga 4 995 037 ming so'm mablag' qayta hisob-kitob qilindi.

Urgutlik Komil Mustafoev ana shu aqidaga amal qilib, yashab o'tdi. 21 yil Urgut tumanidagi Tinchlik mahallasiga raislik qilgan insonni yana boshqa shaklda tariflashga hojat yo'q.

Komil Mustafoev 1963-yilda Urgutda, pedagoglar oilasida tug'ilgan. Otasi rahmatli Ahmad Mustafoev ko'p yillarda 20-maktab direktori bo'lib ishlagan, onasi Oyzira Melikova esa tarix fani o'qituvchisi edi. Bu ikki ta'lim jonkuyarlar 10 nafar farzandni kamolga yetkazib, barini oliy ma'lumotli qildi, ularga el, Vatanga xizmat qilish olyi burch ekanligini o'rgatti. K.Mustafoev ana shunday tarbiya olib o'sgan, tabiatan mehribon va samimiy inson edi.

## Mahallam – uyim, orim, borim

Ko'p yillarda turli sohalarda mehnat qilgan, hamkasblari orasida ham tashkilotchiligi, faoliyoti bilan ajralib turgan Komil Mustafoev 2003-yilda Tinchlik mahallasiga rais bo'ldi. U faoliyati davomida har bir xonadan, har bir fuqaroning tashvishiga sherik bo'lar, xalqning muammolarni o'zinikidan ustun qo'yardi. To'y-tomoshalar, ma'rakalar Komil raisning maslahati va rahbarligis o'tmas, bundan fuqarolarni ham mammun edi.



ishlarni amalga oshirib, aholining og'irini engil qildi. Mahallaning har bir fuqarosiga nima kerak ekanligini va bunga erishish uchun nima qilish lozimligini yaxshi bilar edi.

Komil aka umr yo'ldoshi Feruza Xodjamova bilan 5 nafar farzandni voyaga yetkazib, olyi ma'lumotli qildi. Ular ham bugun turli sohalarda xalqqa xizmat qilmogda.

Komil Mustafoev 61 yoshida olamdan o'tdi. Biz raisimizning o'gitlarini, mahallamiz uchun qilgan xizmatlarini unutmaymiz.

**Urgut tumanidagi Tinchlik mahallasi faollari.**

### DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Burxanova Saobatga (2023-yil 6-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.**

\* \* \*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Alekseyeva Natalya Mixaylovnaga (2023-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.**

\* \* \*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Abduraxmanov Karimga (2016-yil 12-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

\* \* \*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Ravshanov Karimga (2020-yil 20-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.**

\* \* \*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Eshonkulova Mukamalga (2019-yil 3-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Chuqur yo'k ko'chasi, 9-“B” uy.**

\* \* \*

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Xodjanazarova Sakinaga (2023-yil 4-yanvarda vafot etgan) tegishli

mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand tumani O'rtaqish mahallasi.**

\* \* \*

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Xalqigito Tursunboyma (2023-yil 15-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rلarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

\* \* \*

### BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi "LOFT ACADEMY" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311079354) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\* \* \*

Samarqand shahridagi "TARIXIY MUZEY BEKATI" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306813984) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\* \* \*

O'zbekiston sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi viloyat kengashi jamoasi viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Suhrob Zayniyevga onasi

**Dilbar aya RUSTAMOVAning**

vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

O'zbekiston sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi viloyat kengashi jamoasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiobiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarcand filiali kasaba uyushma qo'mitasi raisi Eshboy Davronovga otasi

**Egamqul DAVRONOVning**

vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i, 1-son bolalar xirurgiyasi kafedrasи dotsenti Suhrob Zayniyevga onasi

**Dilbar aya RUSTAMOVAning**

vafoti munosabati bilan hamardilik bildiradi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi universitet huzuridagi Reabilitologiya va sport tibbiyoti ilmiy-tadqiqot instituti direktori Farhod Botirovga onasi

**Oysifat BOTIROVAning**


vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

## "SABR MIKROMOLIYA TASHKIL OTI"

mas'uliyati cheklangan jamiyatining moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisoboti

2024-yil 1-yanvar holatiga

KOD	KO'RSATKICHALAR	ming so'mda
1. FOIZLI DAROMADLAR		
110	Banklardagi depozitlar bo'yicha foizli daromadlar	0
120	Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar (mikro-qarzlar) bo'yicha foizli daromadlar	2 214 553
130	O'zini o'zi band qilgan shaxslarga berilgan mikroqarzlar bo'yicha foizli daromadlar	0
140	Yakka tartibdagi tadbirdorlarga berilgan kreditlar (mikrokreditlar) bo'yicha foizli daromadlar	0
150	Yuridik shaxslarga berilgan kreditlar (mikrokreditlar) bo'yicha foizli daromadlar	0
160	Lizing bo'yicha foizli daromadlar	0
170	Boshqa foizli daromadlar	0
180	Jami foizli daromadlar (110+120+130+140+150+160+170)	2 214 553
2. FOIZLI XARAJATLAR		
210	Jalb qilingan qarz mablag'lari bo'yicha foizli xarajatlar	79 079
220	Banklardan olingan kreditlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan foizli xarajatlar	0
230	Boshqa kreditorlarga to'lanishi lozim bo'lgan foizli xarajatlar	0
240	Chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha foizli xarajatlar	0
250	Lizing bo'yicha foizli xarajatlar	0
260	Boshqa foizli xarajatlar	0
270	Jami foizli xarajatlar (210+220+230+240+250+260)	79 079
3. KREDIT VA LIZINGLAR BO'YICHA KO'RILISHI MUMKIN BO'LGAN ZARARLARNI BAHOLASHGACHA BO'LGAN SOF FOIZLARI DAROMADLAR (180-270)		2 135 474
320	Minus: kredit va lizinglar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlar baholash	224 905
330	Kredit va lizinglar bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlar baholashlandigan so'ng sof foizli daromadlar (310-320)	1 910 569
4. FOIZSIZ DAROMADLAR		
410	Kafolatlar va kafill	



Qo'shrabotning odamlari tanti va mehnatkash, shuning uchun ham dasturxonidan baraka arimaydi. Bu elning yaxshisi ko'p, o'z davrida mashhur bo'lib o'tgan so'z ustasi - baxshisi ko'p. Ularning piro peshvosi Ergash Jumanbulbul o'g'li bo'lib, bu nodir siyomonig hali o'rganilmagan jihatlar ancha-muncha.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ta'rifidagi o'zbek folklorining Navoiysi - Ergash Jumanbulbul o'g'lidir.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining o'zi qayd etgan shajaralariga ko'ra, avlodlari xat-savodli mulla, ma'rifatli insonlar ekanligi anglashiladi va shu barobarida baxshichilikdan va hunarmandlikdan nasibador ekanliklariga ham ishora etiladi. Shu mazmunda ota-bobolari yo'liga sodiq bo'lsin, ortalaridan ergashib yursin, deya nek niyat va qadim udumlarga itoatda nomlari Ergash deb atalgan ekan. Mulla Ergash baxshi so'zga chechanligi va aytuvlari ma'nodorligi bilan ham yaqqol ko'zga tashlanib turishi kuylagan dostonlarida o'z aksini topgan. Bu qobiliyat ham ajod meros bo'lib, yorqin bir misoli bor.

## O'zbek folklorining Navoiysi

Katta enalaridan birlari Sulton kampirning qozoq oqini bilan savol-javobi ko'p mashhur aytildigan va eslanadigan voqeja. Bayoni shuki, Qo'rg'on baxshilari, xususan, Jumanbulbulning shuhratini eshitib, qozoq oqinlaridan biri Qo'rg'onga kelibdi. Bu uydurma emas, bo'lgan voqeja ekanligini folklorshunos olim Sh.Turdimov quydagicha bayonlaydi:

- Ba'zi manbalarda oqinining ismi Moylixo'ja deylidi. XIX asrning o'tralari, aynan Jumanbulbulga zamondosh yashagan ikki Moylixo'ja nomi qozoq folklorshunosligida e'tirof etilgan. Birlari Keles atrofida, boshqasi Qizil O'rda tarafda yashagan. Nazarimizda, Jumanbulbul bilan do'st tutingan oqin qizil o'rdalik Moylixo'ja bo'lishi mumkin. Jug'rofij nisbatidan olinsa, Nurota va Qizil O'rda orasi ancha yaqin va bu hududlar o'tasida doim madaniy-iqtisodiy aloqalar bo'lgan...

Xullas, oqin kunning issig'iда Qo'rg'onga kelgan. Qarasa, bir keksa ayol quduqdandan suv tortib, mollarning novini to'ldirayotibdi. Ayol Sulton kampir ekan. Oqin salomlashib, otini novdagisi suvgaga qo'yib, ko'ngliga bir gap kelib, shu momoydi tebratib qo'yay, deb Oqtovga yuzlanibdi va dona-dona qilib savol tashlabdi:

*Sendan savol so'rayman turgan zayip,  
O'si turgan tovlarine necha jasar?*

Sulton kampir bir gap bo'larini ichida sezib turganmi, kamondan otilganday, hayallamay javob qilibdi:

*Xudoyimning ishin ko'r,  
Falakding gardishin ko'r,  
Men bilmayan joshini,  
Ovzin ochib, tishin ko'r.*

Oqin: "Bu elning nomi chiqmagan ayoli shunday chechan bo'lsa, elga doston Jumanbulbuli qanday bo'ldi ekan?...", deb iziga qaytib ketgan ekan.

Keyinchalik o'sha oqin Jumanbulbul bilan do'st tutinib, borishli-kelishli bo'lgan, deyishadi. Sulton kampirning oqinga bergan javobida, oqinining bu javob quvvatini anglab, iziga qaytishida ulkan hikmat bor.

Ergash Jumanbulbulning yozishicha, u o'smirligidan el kezib-yurt kezib, doston kuylaydi, tabiblik qiladi, naqqoshlik bilan shug'ullanadi. Bu davrlarda Ergash baxshi favqulodda noyob xotira, iste'dod sohibi sifatida tanila boshlagan. Dostonlarni borlab aytishi, o'ziga kelganini demasdan, avval aytganidan keyingisini bo'yitib aytishi elni befaroq qoldirmaydi. Ixlosmand va havasmandlar soni osha ustoz baxshiga aylana boradi. Husnu xulqi bilan e'tibor topadi.

Ergash Jumanbulbul 1924-1925-yillarda qishloq bolalarining boshlang'ich savodini chiqarishni niyatida maktab ham ochadi. Ammo 1925-yilning kuzida O'zbeklarni o'rganish komiteti tashabbusi bilan Samarqand shahriga chaqirilgach, maktab faoliyatini to'xtab qoladi. Shundan keyin u baxshichilikka e'tibor qaratadi. U aytgan dostonlar Samarqandda folklorshunos Hodi Zarif rahbarligida yozib olinadi. Shu tariqa Mulla Ergash Jumanbulbul o'g'li dostonlar satriga ezgu dardlarini ko'chirib, hikmat satrlarni shoyon kuylaydi.

Aytadan to'xtamagan wa hikmatli meroslari bo'lgan "Go'ro'g'li" (tug'ilishi wa bolaligi), "Xoldorxon", "Xushkeldi", "Avazxon", "Hasanxon", "Dalli", "Ravshan", "Xiromon", "Qunduz va Yulduz", "Nurali", "Alponish", "Yusuf-Ahmad", "Alibek bilan Bolibek", "Kuntug'mish", "Yakka Ahmad", "Vomiq-Uzro", "Qumri", "Oshiq G'arib", "Qizjibek", "Tulumbiy", "Maxtumquli" kabi dostonlarining har biri bir maktab. Bu dostonlarning zamirida islam bor, iymon bor, ruhiy tarbiya bor. Xossatan, Ergash baxshi ulug' avliyo Ahmad Yassaviy va bu zoti bo'barakotning tariqati yo'liga mahbub bo'lgan Hakim ota Boqirg'oniy, So'fi Ollohyor, Mashrab, Huvaydo, Maxtumquli kabi hikmat va donish sohiblariga payrov bo'lib do'mbirasini sayratgan.

Yassaviy tariqatiga mansubliklari dostonlarida o'z aksini topgan. Bu haqiqatini anglash va ommagga anglatish shu sohada fikru mushohada yuritayotgan zamondosh olimalrimiz zimmasidagi muhim vazifalardan biri. Chunki aslina aslicha ko'rsatish ilm kishilariga xos. Quyida e'tiborligizga Ergash Jumanbulbulning birgina dostoni - "Qunduz va Yulduz" dan olingan misollar bilan Hazrat Ahmad Yassaviyning "Hikmat"larini qiyoslash fikrimizning isboti uchun asqotishidan umidvormiz:

### Ergash baxshida:

(Pandu nasihat mavzusida )  
Nuraljon, bir pandiyot aylayin,  
Sen bo'imasang, har kunda dod aylayin,  
Bir paslaq ot jilovin to'xtatgin,  
Tur, yarqinim, bir nasihat aylayin.

### Hazrat Ahmad Yassaviyda:

Maning hikmatlarim nodon eshitmas,  
Vale ko'ngli qaro pandimni tutmas.

\* \* \*

Qu! Xoja Ahmad, bu hikmatni kimga ayding,  
Orifman deb xaloyiq'a o'qub yovding,  
Ta'sir qilmas olimlarga ayg'on panding,  
Orif ular, tan mulkini vayron qilur.

### Ergash shoirda:

(Manmanlikni qoralash mavzusida )  
O'zingdan pastlarman har yo'iga ketma,  
Bolam, aytgan nasihatim unutma.  
Oldingdan kim chiqsa, salomsiz o'tma,  
Bir g'aribni ko'rsang, zinhor og'ritma.

\* \* \*

Aytgan so'zni esingga ol, chirog'im.  
Zinhor manmanlikning yo'lini tutma.

### Hazrat Ahmad Yassaviyda:

Qaya ko'rsang ko'ngli sinuq, marham bo'lg'il,  
Andog' mazlum yo'lda bo'lsa, hamdam bo'lg'il.  
Ro'zi mahshar diydoriga a mahram bo'lg'il,  
Moumanlik xaloyiqdin qochtim mano.

### Ergash shoirda:

(Shaytonni la'nattash mavzusida )  
Qirg'iy degan qushlar bo'lar qiyoda,  
Illohim davlatning bo'lgay ziyoda,  
Ulug' so'zlab shayton bo'ldi Azozil,  
Azozilday olim o'tmas dunyoda.

### Hazrat Ahmad Yassaviyda:

Jonu dilda haq zikrini aytib mudom,  
Shayton lain yo'llaridin qochtim mano.  
Hikmatim eshit'onga ulush beray,  
Hikmat eshit'ib yig'lag'onnini mehmon qilay,  
Andog' oshiq yo'lda qolsa, qo'lin olay.  
Jon berarda imon eltar, do'stlarimo.

Xullas, demoqchi bo'iganimiz shuki, o'zingiz o'qib, o'zingiz guvoh bo'lganingizdek, Ergash Jumanbulbul o'g'iga g'oyibidan iste'dod yetgan, aqlo idrokda davrining peshqadam bo'lgan, o'tmish salaflari dolzarb bilgan mavzularni baralla davom ettirgan. U shunday ahli donish va zakiyat zot jumlasidan bo'lgan. Taqdiru qismat boshiga solgan yo'qotish va qiyinchiliklarga sabru bardosh bilan ham hayrat eshigini ochgan bu aziz zot ijodi uzoq yillarda zamon mafkurasiga moslashtirib talqin etilib kelindi. Shukrlar bo'lsinki, istiqloq ne'matidan bobrahralik armonlar boshidan soyalarni aritdi.

Xalqimiz ulug' avlyiolar Ahmad Yassaviy, Hakim ota Boqirg'oniy, So'fi Ollohyor, Mashrab, Huvaydo, Maxtumquli kabi hikmat va donish sohiblariga payrov bo'lib do'mbirasini sayratgan mulla Ergash shoiring asliyatini ommaga to'lg'ligicha yetkazish fursati allaqachon yetgan. Iqroramiz shuki, Ergash shoiring Qo'shrabotning chin ma'nodagi ma'naviyat temsili. Zero, Ergash Jumanbulbul o'g'li deyilganda, Qo'shrabot, Qo'shrabot deyilganda, bu siyoma eslana-di. Qolgani o'zingizga havola.

**Suyundik Mustafa NUROTOIY,**  
**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00.

# ANTROPOGEN LANDSHAFTSHUNOSLIK BILIMDONI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti olimlarining zahmatli mehnati evaziga universitetda arxeologiya, tilshunoslik, yadroshunoslik kabi yirik ilmiy maktablar shakllandi, rivoj topdi. Ana shunday maktablardan biri Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarda tan olingen antropogen landshaftshunoslik maktabi bo'lib, uning yaralishida professor Ali Abdulqosimovning xizmati beqiyos. Olim bu soha bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlarni chuqur, ilmiy asoslab, o'ziga xos maktab yaratara oldi.

A.Abdulqosimov  
1934-yilda Payariq tumanida tug'ildi. Olimning yoshlik yillari og'ir davrga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, ilm egalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. O'zbek (hозири Samarqand) davlat universiteti geologiya-geografiya fakulteti geografiya yo'nalishida tahsil oldi. O'qishni tamomlagach, 1959-yilda Payariq tumanidagi 19-o'rta maktabda o'qituvchiligidan qilib, direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinnbosari lavozimida ishladi.

1960-yilda SamDUda endigina shakllanayotgan geograflar maktabi yosh iste'dod sohiblarini tanlab, o'z safini kengaytira boshlagan edi. Shu davrda fakultetni bitirgan iste'dodli yosher A.Saidov, M.Abdujabborov, A.Abdulqosimov, S.Nishonov va boshqalar ishga qabul qilinib, ular sohibi ittifoqning ilmiy maktablariga aspiranturaga yuborildi. Ilmiga chanqoq A.Abdulqosimovga Vorenej davlat universitetining tabiiy geografiya va landshaftshunoslik yo'nalishi bo'yicha aspiranturada o'qish nasib etdi. 1961-1964-yillarda yosh tadqiqotchi dunyoga mashhur landshaftshunos olim F.Milkovdan tabiiy geografiya va antropogen landshaftshunoslikning nazariy masalalarini o'rgandi. Shu izlanishlar natijasida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ustoz faoliyatini 1964-yilden SamDUda davom ettirib, ushbu dargohda assistentiidan professorlikka bo'lgan mashaqqatli ilm yo'lini bosib o'tdi.

1990-yilda Ozarbayjon Respublikasi Fanlar akademiyasining geografiya instituti qoshidagi ixtisoslashgan ilmiy kengashda doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

A.Abdulqosimovning ilmiy tadqiqotlarida O'rta Osyo yirik tog' oralig'i botiqlari landshaftlarining zonal, regional va vertikal tabaqalishni, ularning inson xo'jalik faoliyatini ta'sirida o'zgarishi oqibatida antropogen landshaftlar hosil bo'lishining nazariy asoslarini oshib berildi. Yirik tog' oralig'i botiqlarning materik bo'yicha geografik tarqalishini, ularning tuzilmasini tashkil etuvchi landshaft komplekslarining kenglik-balandlik zonalari hosil qilishini isbotladi.

Domla 1962-yildan Farg'onada botiqning "TACIS-TEMPUS" dasturi bo'yicha "URBALAYF" loyihasining O'zbekistondagi koordinatori vazifasini bajardi. Bu davrda fakultetning o'ndan ortiq professor-o'qituvchilari Italiya, Belgiya, Fransiya, Ispaniya davlatlari geografiya, shaharsozlik, demografiya, GES texnologiyalari sohalari bo'yicha ilmiy safarlarda bo'ldi. Ustoz rahbarligida universitetda o'sha davrda eng ilg'o texnologiyalar bilan jihozlangan "URBALAYF" laboratoriysi tashkil etildi.

Ustoz ilmiy izlanishlari natijasida 500 dan ortiq ilmiy maqola, monografiya, darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratdi, o'nlab shogirdlar tayyorladi. Domla ko'p yillik ilmiy faoliyati uchun "El-yurt hummati" ordeni bilan taqdirlandi. Joriy yilning 17-18-may kunlari universitetimizda "Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojanish" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkaziladi. Ushbu anjumanga respublikamiz va xorijiy mamlakatlardan 200 ga yaqin yetakchi olim ishtiroy etishi kutilmoqda.

Konferentsiyada O'zbekiston Respublikasi va boshqa xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan antropogen landshaftshunoslik tadqiqotlarining nazariyasi, tajribalari, dolzorb muammolari va istiqbolli yo'nalishlari, antropogen landshaft tadqiqotlarida zamonaviy va innovatsiya metodlarini qo'llashning ahamiyati, antropogen omil ta'sirida landshaftlar modernizatsiyasi, yosh olimlarni antropogen landshaftshunoslikka jaib etish masalalari muhokama etiladi.

**Aliqul RAVSHANOV,**  
**Kamoliddin DAVRONOV,**  
**Nilufar SOBIROVA,**  
**SamDU geografiya va ekologiya fakulteti dosentlari.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling

Sotuvda narxi kelishilgan holda

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir:** Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 181 nusxada chop etildi. Buyurtma 256. Hajmi 2 bosma taboq, bichimni A-2

**Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

**Navbatchi muharrir:**

**A.SHERXOLOV.**

**Navbatchi:**

**A.BAROTOV.**

**Sahifalovchi:**